Qabul qilindi: 21-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 25-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 29-sentabr 2026-yil

# N.G. GORBUNOVANING KUNGAY YODGORLIGIDAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI

**Xolmatov Qudratillo Saydmaxmutovich**
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID-0009-0005-9642-846X



**Annotatsiya (Abstract):** Ushbu maqolada arxeolog olima N.G.Gorbunovaning Farg‘ona vodiysida joyashgan Kungay yodgorligida olib brogan arxeologik tadqiqotlari haqida ilmiy hulosalar berilgan.Arxeolog Farg‘ona viloyati hududidagi bir nechta yodgorliklarni o‘rgangan bo‘lib ushbu yodgorliklarni umumiy hususiyatlari haqida ilmiy tahlillar o‘tkazgan.Farg‘ona vodiysi bronza va temir davrini o‘rganilishida ushbu tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etdi.

**Kalit so‘zlar (Key words):** Kungay, Oqtom, Sufon, sopol, dafn marosimari, qabr, keramika, temir, Janubiy Farg‘ona.

**KIRISH (INTRODUCTION).** N.G. Gorbunovaning Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida Kungay yodgorligi alohida o‘rin egallaydi. Yodgorlik uning Farg‘onaning ilk temir davri arxeologiyasini o‘rganishdagi muhim obyektlaridan biri bo‘lgan.

Kungay materiallari Gorbunovaning Farg‘onadagi ilk temir davri madaniyatini davrlashtirish, dafn marosimlarini o‘rganish va mahalliy arxeologik guruhlarni o‘zaro taqqoslash ishlarida muhim manba vazifasini bajargan.

Kungay qabristoni Farg‘ona vodiysining janubi-sharqiy qismida joylashgan. Uning geografik o‘rni Farg‘ona vodiysi bilan Oloy mintaqasi o‘rtasidagi qadimgi madaniy aloqalarni o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega.Yodgorlikning tog‘oldi hududida joylashishi uni Farg‘ona–Oloy yo‘nalishidagi arxeologik jarayonlar bilan bog‘liq holda

tadqiq etish imkonini beradi.[1:171-194]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (LITERATURE REVIEW AND METHODS).** Kungay tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biri dafn inshootlarining turli shakllarda bo‘lganini aniqlashdir. Kungayda qadimgi yer sathida amalga oshirilgan dafnlar, grunt qabrlar, tosh konstruksiyalar hamda bir nechta dafn inshootlari tutashib shakllangan «uzun» qo‘rg‘onlar qayd etilgan.Bunday inshootlar Farg‘onaning ilk temir davri dafn yodgorliklarini o‘rganishda muhim tipologik belgi hisoblanadi. Kungaydagi dafn konstruksiyalari Aqtom, Sufon va boshqa yodgorliklar bilan taqqoslash uchun asos bo‘lgan.[2:91].



Kungay yodgorligi dafn uslublarining eng muhim xususiyatlaridan biri marhumlarning qadimgi yer sathida dafn qilinishi hisoblanadi. Gorbunovaning keyingi umumlashtiruvchi ma’lumotlarida Kungaydagi 53 ta dafndan 12 tasi grunt qabrlarga, tosh yotqiziqlari bilan yoki ularsiz holda joylashtirilgani qayd etiladi. Qolgan dafnlarning asosiy qismi qadimgi yer sathida amalga oshirilgan.[2:120].

Bu ma’lumot Kungayda dafn marosimining o‘ziga xos modelini ko‘rsatadi: marhumni qadimgi yer sathiga joylashtirish va uning ustidan dafn inshooti yoki qo‘rg‘on barpo etish. Mazkur an’ana Farg‘ona va qo‘shni tog‘li hududlar dafn marosimlarini o‘zaro taqqoslashda muhim mezon bo‘lgan.

Kungayning ilmiy ahamiyati uning Oloy mintaqasi bilan madaniy aloqalarini o‘rganish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Qadimgi yer sathida dafn qilish an’anasining Farg‘ona va Oloydagi ayrim yodgorliklarda uchrashi ular o‘rtasidagi madaniy yaqinlikni ko‘rsatadi.Biroq bu o‘xshashlikni Kungay aholisini to‘g‘ridan-to‘g‘ri muayyan etnik guruh bilan tenglashtirish sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo‘lish lozim. Arxeologik nuqtai nazardan uni Farg‘ona va Oloy jamoalari o‘rtasidagi madaniy ta’sir va aloqalarning ifodasi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

**Sopol buyumlar**

Kungay yodgorligidan topilgan sopol buyumlari yodgorligining xronologiyasi va

madaniy xususiyatlarini aniqlashda muhim manba bo‘lgan. Kungay majmuasida qo‘lda yasalgan va naqshlangan kulolchilik an’analari muhim o‘rin egallaydi.

Gorbunovaning keyingi tadqiqotlarida Kungay kulolchiligi Oqtom va Sufon kabi Farg‘onaning boshqa ilk temir davri qabristonlari materiallari bilan taqqoslangan. Sopollardagi tipologik farqlar yodgorliklarning xronologik munosabatlarini belgilashda qo‘llanilgan.[4:72].

**NATIJA VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION).** Kungaydan topilgan metall buyumlar, jumladan o‘q uchlari, yodgorlikning xronologiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Keyingi arxeologik tadqiqotlarda Kungay materiallari boshqa Markaziy Osiyo yodgorliklarining metall inventari bilan taqqoslangan.



Ayrim metall buyumlarning tipologik xususiyatlari Kungayning qadimiy bosqichlarini miloddan avvalgi VI asrga yaqinlashtirish imkonini bergan. Shuning uchun yodgorlikni asosan miloddan avvalgi VI–V asrlar doirasida sanalash asosiy ilmiy yondashuv hisoblanadi.

**Antropologik materiallar**

Kungay qabrlaridan olingan inson suyaklari keyingi antropologik tadqiqotlar uchun ham muhim material bo‘lgan. Kungay, Oqtom va Sufon kabi qabristonlardan topilgan antropologik materiallarda bosh suyagining sun’iy deformatsiyasi kabi holatlar qayd etilgan.Bunday ma’lumotlar Farg‘ona aholisining antropologik xususiyatlarini hamda qo‘shni mintaqalar bilan madaniy munosabatlarini o‘rganishda qo‘shimcha manba vazifasini bajaradi.[1:194].

Gorbunovaning ilmiy yondashuvida Kungayni Farg‘onaning boshqa qabristonlari bilan kompleks taqqoslash muhim o‘rin tutgan. Kungay, Oqtom va Sufon materiallarini qiyosiy o‘rganish orqali dafn marosimi, sopollar, metall buyumlar va mahalliy madaniy xususiyatlarning xronologik o‘zgarishlari aniqlangan.Kungayning erta bosqichga oid belgilari, ayniqsa qadimgi yer sathida dafn qilish va kulolchilik xususiyatlari, uni Farg‘onaning ilk temir davri madaniyati tarixini o‘rganishda muhim yodgorlik sifatida

ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

**XULOSA (CONCLUSION).** Kungay materiallari Gorbunovaga Farg‘ona vodiysidagi ilk temir davri madaniyati bir xil va o‘zgarmas tizim emas, balki turli mahalliy xususiyatlarga ega arxeologik guruhlardan tashkil topganini ko‘rsatish imkonini bergan.Kungay misolida dafn marosimining o‘ziga xosligi, qadimgi yer sathida dafn qilish, kurgan konstruksiyalari, keramika an’analari, metall buyumlar hamda Farg‘ona–Oloy madaniy aloqalari bir tizimda namoyon bo‘ladi.Shu ma’noda Kungay mogilnigi N.G. Gorbunovaning Farg‘onadagi ilk temir davri madaniyatini arxeologik materiallar asosida davrlashtirish va uning mahalliy turlarlarini ajratishdagi muhim manbalaridan biri hisoblanadi.



Kungay yodgorligi N.G. Gorbunovaning Farg‘ona arxeologiyasiga qo‘shgan muhim ilmiy hissalaridan biri hisoblanadi. Yodgorlik materiallari Farg‘ona vodiysida miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida shakllangan madaniy jarayonlarni, dafn marosimlarining evolyutsiyasini, mahalliy arxeologik an’analarni hamda Farg‘ona–Oloy madaniy aloqalarini rekonstruksiya qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Kungayni o‘rganish Gorbunovaning keyingi Oqtom, Sufon va boshqa yodgorliklar bo‘yicha tadqiqotlari bilan birgalikda Farg‘ona arxeologiyasining ilk temir davri xronologiyasi va madaniy dinamikasini ishlab chiqishga asos bo‘lgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Горбунова Н.Г. Кунгайский могильник // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып. 3. Ленинград, 1961. С. 171–194.

2. Горбунова Н.Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железа // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып. 5. Ленинград, 1962.С.91–122.

3. Горбунова Н.Г. Археологические работы в Фергане // Сборник Государственного Эрмитажа. Вып. XXII. Ленинград, 1962. С. 54–60.

4. Горбунова Н.Г. Суфанский могильник // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып. 11. Ленинград, 1969. С. 72–91.

5. Горбунова Н.Г. О локальных особенностях в культуре древней Ферганы // Советскаяархеология.1970.№1.С.77–86.

6. Горбунова Н.Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (к истории культуры Ферганы) // Советская археология. 1979.№3.С.16–34.

7. Gorbunova N.G. The Culture of Ancient Ferghana: VI Century B.C. – VI Century A.D. Oxford, 1986.

